



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS

TA'LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

BT va STI ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi Xalillayeva Go'zaloyning

5111700 – “Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi

bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “5- sinfda matematikadan masalalar yechishga o'rgatish boshlang'ich ta'lim uzviyligini ta'minlovchi omil sifatida”

Ilmiy rahbar:

Xudoynazarov E.



Urganch 2018 yil

Mundarija:

Kirish.....	3
I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR YECHISHNING PSIXALOGIK ASOSLARI.....	8
1.1. Matematik masalalar yechimini qidirishga o'qitish jarayonini psixologik-pedagogik jihatdan asoslash.....	8
1.2. Masala yechimini topishga o'qitish muammolari va masalani yechishning psixologik va mantiqiy qidiruvini asoslash.....	11
1.3. Masala yechimini qidirish jarayonida o'quvchilar faoliyatini va masala yechimini qidirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligini asoslash.....	25
II BOB 5- SINFDA MATEMATIKADAN MASALALAR YECHISHGA O'RGATISH BOSHLANG'ICH TA'LIM UZVIYLIGINI TA'MINLOVCHI OMIL SIFATIDA.....	37
2.1. Ta'lim uzviyligini arifmetik masalalarni yechish orqali ta'minlash metodikasi.....	37
2.2. Ta'lim uzviyligini harakatga doir masalalar yechish orqali ta'minlash metodikasi.....	47
2.3. Ta'lim uzviyligini qiziqarli masalalar va ularni yechish orqali ta'minlash metodikasi.....	55
Xulosa.....	62
Foydalanilgan adabiyotlar	64

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va bu amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o`rni va ro`li alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg`or davlatlar darajasiga ko`tarish ularning bilimi, istedodi, jasorati, ma`naviy barkamolligiga bog`liq. Shuning uchun ham Prezidentimiz o`zining barcha asarlari va ma`ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o`ringa qo`yish bilan, uni davlat siyosati darajasiga ko`tardi. Bu haqda Muhtaram Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov shunday yozadi: “Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo`lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo`lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etyotgan ekanmiz, bu borada ma`naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi”[6]

Darhaqiqat, mustaqillik davrida yoshlar tarbiyasi uchun, ularning qobiliyat va iste`dodlarini ro`yobga chiqarish uchun barcha sharoitlar yaratildi. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan “Ta`lim to`g`risida” gi Qonunda va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da yoshlarni jismonan baquvvat, ma`naviy jihatdan yuksak, aqliy jihatdan barkamol, ruhiy jihatdan qobilyatli, zamonaviy ilim va kasb-hunarni mukammal egallagan, o`zining shaxsiy fikriga ega vatanparvar, insonparvar va mehnatsevar shaxs qilib tarbiyalash ko`zda tutilgan. Bu masala mamlakatimizda mustaqillik qo`lga kiritilgandan keyin dolzarb muammoga aylandi. Ta`lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish masalasi kun tartibiga qo`yildi. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ishlab chiqilib, u bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi. Ushbu dastur mamlakatimizda yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida jahon standartlariga to`la javob beradigan tarzda o`z kasbining ustasi bo`lib yetishishini ta`minlay oladi. Albatta, bu masalaning tamal toshi boshlang`ich ta`lim jarayonida qo`yiladi. Shu sababli dastlab maktabga qadam qo`ygan o`quvchiga puxta bilim berish lozim. Chunki “Davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, intellektual, ya`ni ma`naviy-ma`rifiy boylik hal qiladi”[7]

Masalalar o'quvchilarga hodisaning mohiyatini to'g'ri izohlay olish imkoniyatini beradi. Yozma mashqlarni bajarish davomida esa boshlang'ich sinf o'quvchilari voqea hodisaning mohiyatini anglab olishga qiynalib qoladilar. Masalalarning xarakteri turli-tuman bo'lishi mumkin: obektni berilgan belgilarga ko'ra topa olish bo'yicha mashqlar, obektni o'xshashligi va farqlarini topish bo'yicha mashqlar yoki konuniyatlarini aniqlash, tasniflashga doir mashqlar va hokazolar.

Bundan tashqari masalalar dars shakllarini rang-barang qilishga yordam beradi. Avvalo, qiziqarli mashqlarni kiritish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mumkin, xususan didaktik o'yinlarni darslarni tashkil qilishda mantiqiy mashqlar asosiy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, matematika darslarida didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning aqliy faoliyatini faollashtiradi. Bu esa ixtiyoriy diqqatini, xotirani, taqqoslash, solishtirish, xulosalar chiqarish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarning yechilishini ta'minlaydi.

Ijodiy topshiriq tarzidagi masalalar sinfdagi har bir o'quvchi bilan individual ishlashga imkon yaratadi. O'quvchining imkoniyatiga uning aqliy va psixologik imkoniyatini hisobga olib, taklif etilgan tabaqalashgan mantiqiy masalalar tizimi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Shunday qilib, masalalar o'quvchilar tafakkurini rivojlantirish, bilan faoliyatlarini faollashtirish borasida ulkan potensial imkoniyatlarga ega. Ijodiy topshiriq tarzidagi masalalarning bunday imkoniyatlari "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning "har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirish va rivojlantirish" g'oyasi bilan uzviy bog'liqdir. Rivojlantiruvchi ta'lim g'oyasi va o'quvchilarni intellektual qobiliyatlarini maksimal maqsad qilib qo'yadi.

Umumta'lim o'rta maktablarining boshlang'ich sinflarida matematika o'qitishning har xil qirralari N. U. Bikbaeva, B. S. Abdullayeva, B. R. Adizov, SH. R. Rayxonov, A. Xalillayev, M. Jumayev, M. A. Zayniddinov, O. R. Roziqov, R. Ibragimov, F. Qosimov, E. Yangiboyeva va boshqalarning ilmiy-tadqiqod ishlarining mavzulari bo'lgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, rivojlantiruvchi o'qitish g'oyasining ahamiyati ta'limda muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, hozirgi sharoitda rivojlantiruvchi talim o'quv-tarbiyaviy jarayonning sifatini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi:

Bitiruv malakaviy ishi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da belgilab berilgan kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlariga tegishli "Fan bilan ta'lim jarayoni aloqadorligini rivojlantirish" bandi, hamda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ni amaliyotga joriy etish jarayonida uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish muammolarini ilmiy tadqiq etish. Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amalga oshirilgan.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi – boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim uzviyligini ta'minlovchi masalalarni yechishga o'rgatish metodikasini ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti - 4-sinflarda matematika o'qitish jarayoni

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy farazi – umumiy o'rta maktabda o'qitishning samaradorligi oshadi, agar boshlang'ich maktabda matematika o'qitishda o'quvchini mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan masalar tanlansa, boshlang'ich sinflarda masalalar yechishning psixologik asoslari o'rganilsa, boshlang'ich matematika darsligiga uzviy bog'lagan holda 5-sinf darsliklaridagi mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi masala va topshiriqlar tarzidagi masalalarni yechish metodikasi ishlab chiqilsa.

Bitiruv malakaviy ishining muammosi, maqsadi va ilmiy farazini tekshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga to'g'ri keldi:

1. Pedagogik va metodik adabiyotlarda matnli masalarni yechishga o'rgatish metodikasini tahlil qilish. Boshlang'ich maktabda matematika o'qitishda o'quvchini mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan masalalardan foydalanish orqali 5- sinf masalalarini o'rgatish metodikasini ishlab chiqish.

2. Matematik masalalar yechimini qidirishga o'qitish jarayonini psixologik-pedagogik jihatdan asoslash.
3. Masala yechimini topishga o'qitish muammolarini va Masalani yechishning psixologik va mantiqiy qidiruvini asoslash.
4. Masala yechimini qidirish jarayonida o'quvchilar faoliyatini va Masala yechimini qidirish jarayonida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro hamkorligi asoslash.
5. Arifmetik masalalarni yechish orqali ta'lim uzviyligini ta'minlash metodikasini ishlab chiqish.
6. Harakatga doir masalalar yechishga o'rgatishda ta'lim uzviyligini ta'minlashni ishlab chiqish.
7. Qiziqarli masalalar va ularni yechishga o'rgatish orqali ta'lim uzviyligini ta'minlashni ishlab chiqish.

Qo'yilgan vazifalarni hal qilish uchun quyidagi bitiruv malakaviy ishi metodlaridan foydalanildi:

- Bitiruv malakaviy ishiga oid muammo bilan bog'liq bo'lgan pedagogik-psixologik, matematik, metodik adabiyotlarni o'rganish va ularni tanqidiy jihatdan tahlil qilish;

- o'quv jarayonini kuzatish;

- qo'yilgan vazifalar bilan bog'liq bo'lgan holatlarni o'rganilgan manbalarga tayangan holda nazariy jihatdan asoslash;

Bitiruv malakaviy ishi natijalarini ta'lim amaliyotida qo'llash.

Bitiruv malakaviy ishining metodologik asosida shaxs rivojlanishi nazariyasining eng muhim g'oyalari, shaxs ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha jahondagi ilg'or pedagogik tajribalar, rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi, jamiyat va shaxs taraqqiyotini insonparvarlashtirish va gumanitarlashtirishning pedagogik asoslari yotadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, boshlang'ich maktab matematika darslarida ta'limning rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytirish

bilan bir qatorda 5-sinf bilan uzviyligini ta'minladi, mantiqiy masalalardan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi va taklif qilindi.

Bitiruv malakaviy ishining hajmi va tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, oltita band va xulosadan iborat bo'lib, 68 betdan iborat.

I BOB. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATNLI MASALALAR YECHISHNING PSIXALOGIK ASOSLARI

1.1. Matematik masalalar yechimini qidirishga o'qitish jarayonini psixologik-pedagogik jihatdan asoslash

Ilmiy izlanishlarimizda V.I. Krupich tomonidan masala yechimini qidirishning psixologik-pedagogik tomonlariga katta ahamiyat qaratilgan [28]. Unda olingan natijalarni o'rganib chiqamiz va zarurat tug'ilganda to'ldiramiz.

Psixologiyada "masala" tushunchasiga fikrlash ob'ekti sifatida qaraladi, bunda masalani yechish jarayonida fikrlash alohida faoliyat sifatida o'rta chiqadi. Psixologiya fanida masalalarning fikrlashning rivojlanishidagi muhim ro'lini tan olgan holda "masala" tushunchasi talqin qilishning yagona usulini ishlab chiqilmagan. Bu tushunchani talqin qilishga fandagi yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Fikrlash faoliyatning turli ko'rinishlarida haqiqatda namoyon bo'ladi. Fikrlash ko'pincha masalalarni yechish jarayonida yuzaga chiqadi. Bunda fikrlashning tahlil, sintez, umumlashtirish, abstraksiya qilish, oydinlashtirish va boshqa amallari shakllanadi. Psixologlar tomonidan fikrlash jarayoni – bu, eng avvalo, tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish ekanligi aniqlangan.

Shunday qilib, fikrlash va masalani yechish o'zaro bog'liq, biroq fikrlashni faqat masala yechishga qarab, ularni bir narsa deb hisoblash mumkin emas. Masalani yechish fikrlash orqali amalga oshiriladi, ammo fikrlash faoliyati masala yechishdan tashqarida ham, masalan masala tuzishda ham ishtirok etadi. Biroq, fikrlashni masala yechish jarayonida rivojlantirish yaxshiroq.

O'quvchilar fikrlashining rivojlanishida masalaning roli fikrlash jarayoni to'g'risidagi tezislar bilan aniqlanadi. Bu tezisning ma'nosi shundaki, masalani yechishning borishi uning o'zi bilan aniqlanadi. Masala fikrlash uchun boshlang'ich sababiy chegaralanishini yaratadi va Shu bilan noma'lumni qidirish yo'nalishini belgilaydi [20].

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, fikrlashning sababiy chegaralanishi masala bilan butkul va to'liq oldindan aniqlanmaydi. Fikrlashning sababiy

chegaralanganligi – bu masalarni yechish davomida fikrlash faoliyatining barcha bosqichlarida mavjud va uzluksiz shakllanuvchi harakatdagi jarayon. Boshqacha qilib aytganda, fikrlash jarayoni masalani yechishni boshlash paytida nafaqat u tomonidan sababiy chegaralanadi, balki jarayonning borishi davomida sababiy chegaralanishni uzluksiz amalga oshirishni nazarda tutadi.

Psixolog K.A. Slavskaya o‘zining “Fikrlash jarayonini sababiy chegaralash” asarida determinizm tamoyilining mazmunini quyidagicha ochib beradi: “tashqi sabablar ichki shartlar orqali harakat qilishidan kelib chiquvchi determinizm tamoyili har qanday gavda, hodisa, jarayonning tashqi va ichki shartlarining ma’lum mutanosibligini belgilaydi: u har qanday bilim sohasida, har qanday fanda izlanishning umumiy metodologik tamoyili sifatida yuzaga chiqadi”.

Determinizm tamoyili tashqi sabablar va ichki shartlarni ularning o‘zaro harakatdagi aloqalarida ochib beradi. Ichki shartlar tashqi shartlar ta’siri ostida yuzaga keladi, bu bilan tashqi shartlarni o‘zgartirib, ularga ta’sir o‘tkazib ularning faolligini aniqlaydilar. Tashqi va ichki shartlarning mutanosibligining o‘zi ularning bir-biriga ta’sir o‘tkazishi davomida o‘zgaradi.

Masalalar nazariyasini yaratishda determinizm tamoyili asos qilib olingan. Aslida, masala – bu fikrlash faoliyati ob’ekti, uning shart va talablari fikrlash jarayoni ob’ektini chuqurroq o‘rganishga, ya’ni masala mavjudligining ichki shartlarini ochishga yo‘llovchi sabab bo‘ladi. Ichki shartlar tashqi shartlarga ta’sir o‘tkazib (masalaning shart va talablari) masalani yechish uchun uning matnini chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, determinizm tamoyili masalani yechimini qidirish jarayonining oldingilarga bog‘liqligini psixologik jihatdan asoslashdan boshqa narsa emas. Haqiqatdan ham, masala yechimini qidirish – bu matematikaning o‘zaro bog‘liq umumiy nazariy qoidalarining uzluksiz mantiqiy izchilligini tuzish. Uni tuzish uchun masalani yechuvchi tashqi shartlardan kelib chiqadi, biroq masalani yechishda har bir bosqich uning tarkibiy qismlarining mantiqiy o‘zaro bog‘liqligi bilan aniqlanadi, ya’ni berilgan masalaning ichki shartlari bilan. Masalani yechishda keyingi bosqichiga o‘tish uchun olingan oraliq

natijalarni masalaning shart va talablari bilan solishtirib ko‘rish zarur, ya’ni ichki shartlarning tashqi shartlarga ta’sir o‘tkazish xolatlari yoki hatto, ichkilarning ta’siri ostida tashqi shartlarning o‘zgarish holatlari mavjud. Shunday qilib, masala yechimini qidirish jarayonida ichki va tashqi shartlar harakatda o‘zaro bog‘liqlar, ularning psixologik asosini esa determinizm tamoyili tashkil qiladi.

Yuqorida keltirilganlarning barchasiga xulosa qilib ayta olamizki, “masala” tushunchasiga psixologik yondashuvning mazmuni masalaning ob’ekti boshlang‘ich muammoli vaziyat, shart va talabning boshlang‘ich mutanosibli ekanligida. Bu, avvalo, inson oldida poyda bo‘lgan masala. Masalani haqiqatni o‘rganishning alohida shakli sifatida qarash mumkin. Shuning uchun masala insonning fikrlash jarayonini sababiy chegaralaydigan ob’ekt sifatida yuzaga chiqadi. Fikrlash faoliyatning tashqi va o‘ziga xos ichki shartlarining o‘zaro hamkorligi amalga oshadigan jarayon sifatida, faoliyat sifatida tushuniladi. Fikrlash jarayoni davomida paydo bo‘ladigan sababiy chegaralash mazmunan masalani yechish davomida tahlil qilish, sintez qilish va umumlashtirish kabi fikrlash amallarining roli bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli ham o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatining rivojlanishi ularda tahlil, sintez, umumlashtirish kabi amallarning shakllanishi bilan bevosita bog‘liq [43, 224 b.].

Har qanday masalaning shakllanishida ikkita qismni ajratish mumkin: shart (shartlar) va talab (savol). Amalda ular hamma vaqt aniq belgilangan. Shartga quyilgan talab xuddi masalada qidirilayotganni belgilaydi, uni qidirish va topish esa masalani yechimini tashkil qiladi.

A.V. Brushlinskiy metodik izlanishlarda deyarli tez-tez masalani talabi va izlanayotgan bir narsa deb karalashini ko‘rsatdi. Bu fikrlash psixologiyasi nuqtai nazaridan qaraganda noto‘g‘ri, chunki masalada talab doimo ma’lum, izlanayotgan esa ma’lum bo‘lishi ham mumkin, noma’lum bo‘lishi ham. Masalan, “Masalani yeching” talabi aniq, izlanayotgan esa noma’lum.

Sintez orqali tahlil qilish – bu ular vositasida berilgan aloqa va munosabatlarga ularni qo‘shish yo‘li bilan ob’ektning, masalan, masalaning noma’lum hususiyatlarini ochishga yo‘naltirilgan mahsus mexanizm.

Sintez orqali tahlil qilish jarayonida umumlashtirish asosida munosabatlar tizimida masalada bajariladigan asosiy munosabat aniqlanadi. U ob'ektiv mavjud va masalaning ichki tarmog'iga kiruvchi elementlarini belgilovchi xarakterlovchi hususiyati bo'ladi. Asosiy munosabat eng yuqori pagonada bo'la turib masala yechimini qidirishni boshqaradi. Shunga qaramasdan, asosiy munosabatni bilish masalani yechayotgan sub'ekt masalani yechish usulini topganini yoki topa olishni kafolatlay olmaydi. Gap shundaki, masalaning tarkibiy qismlari orasida asosiy munosabatdan tashqari boshqa (asosiy bo'lmagan), masala yechimini topishda ko'pincha asosiy munosabatga qaraganda ancha ahamiyatliroq bo'lgan munosabatlar ham bor.

1.2. Masala yechimini topishga o'qitish muammolari

Matematik masalalarni yechish jarayoni o'z ichiga to'rtta bosqichni olish aytib o'tilgan edi. Ular ichida eng qiyini - yechimni qidirish. Bu bosqichda masalaning tarkibiy qismlari bir-biriga nisbatan qanday munosabatda ekanliklari aniqlanadi, yechimning taxminiy rejasi tuziladi, keyin u bajariladi. Agar bu muvaffaqiyatli chiqmasa boshqa reja tuziladi. Yechimga olib keluvchi reja topilganda esa uni samaraliroq usul bilan butunlay amalga oshirish va topilgan yechimni tahlil qilish qoladi, holos. Masalani yechimini qidirish - uni yechishning asosiy bosqichi ekanligi ko'zga tashlanadi. U bajarilgandan keyingi sub'ektning harakatlari oldindan ma'lum, ya'ni endi yechimni tekshirish, uni samaraliroq qilish va oxirgi ko'rinishda ifodalash zarur bo'ladi. Psixologiya nuqtai nazaridan qaraganda berilgan holat masalani yechish – bu, avvalo, uning yechimini qidirish ekanini bildiradi. Ko'pgina psixologlar bu nuqtai nazarga qo'shiladilar. Jumladan, L.L. Gurova masalani yechishni bu so'zning eng keng ma'nosida uning yechimini qidirish, deb tushunadi. Yechimni qidirish deganda yechimning tamoyilini, mantiqini topish tushuniladi, unga mos ravishda u yoki bu harakatlar bajariladi, biroq ularning talab qilingan natijaga olib kelish-kelmasligi haqida oldindan bilishning imkoni yo'q [24, 314 b.].

Zamonaviy fikrlash psixologiyasida masala yechimini qidirishning to'rtta turli ko'rinishlari ajratiladi.

Qidiruvning birinchi ko'rinishi – masalani yechishning har bir bosqichida mumkin bo'lgan barcha yurishlarni tartib bo'yicha tekshirish, tizimli sinash vositasi orqali qidirish. Bu ko'rinish “yechim variantlarini butkul tekshirish” deb ataladi.

Qidiruvning ikkinchi ko'rinishi – tasodifiy qidirish, bunda masalani yechish yo'nalishi qandaydir bir tasodifiy mezon bo'yicha aniqlanadi.

Qidiruvning uchinchi ko'rinishi – masalani yechishdagi oldingi yurish natijasidan kelib chiqib tanlov asosida qidirish. Fikrlash psixologiyasida u “sinov va xatolar uslubi” deb atalgan. Bu erda har qanday omadsiz urinish chetlatiladi, omadlisi esa, bir qator bosqichlarda yechimni qidirish yo'nalishini belgilaydi.

Qidiruvning to'rtinchi ko'rinishi – evristik (tartibga solingan) qidirish, uni bajarayotib, masalaning o'zida berilgan ma'lumotdan foydalaniladi. Bu ko'rinish “yechim variantlarini butkul tekshirish” deb ataladi. Evristik qidirishni amalga oshirayotganda aniq natijasiz strategiyalar qarab chiqilmaydi, shu sababli qidiruv hajmi kichrayadi, bunda mumkin bo'lgan yo'nalishlar qanchalik ilgari tahlil qilinsa u shunchalik tez kamayadi.

Matematikaga o'qitish nazariyasi va uslubiyotida o'quvchilarda masala yechimini qidirishni bajarish qobiliyatini shakllantirishdagi omadsizlik va qiyinchiliklarni bartaraf qilishga ko'plagan urinishlar ularning yechimini qidirish amalini qo'llashga o'qitishga olib boriladi. Jumladan, o'quvchilarni masalalarni tashkil qilingan, gipotezalarni ilgari surish va tekshirish, masalani yechish rejalarini ishlab chiqish va boshqa qobiliyatini asta-sekin shakllantirishga mo'ljallangan o'z-o'zini o'qitish sharoitida o'qitish taklif qilinadi. Shu ishda ko'rsatilganki, bunday o'z-o'zini o'qitishni tashkil qilishda faoliyat amallari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asarda amal deganda harakatlar yoki harakatlar tizimi to'g'risida umumlashgan, berilgan faoliyat uchun o'ziga xos bo'lgan masalalar yechimini qidirib topish uchun zarur bo'lgan bilim tushuniladi, bunda bu bilim bir qator tasvirda ob'ektivlashtirilgan, masalan, so'z bilan ifodalash

ko‘rinishida. Keyin bu ishda o‘quv fani tarkibi nafaqat fan bilimlarining aniq doirasini, balki berilgan fan tarkibida o‘quvchilarda shakllantirish nazarda tutilgan faoliyatning tarmoqlari ham berilishi lozimligi haqidagi fikr rivojlantiriladi. Shu bilan birga shuni ham esda tutish lozimki, o‘quvchi tomonidan aniq bir masalaning yechilishi unga ongli ravishda o‘zi tomonidan qo‘llanilgan amalni aniqlash imkonini bermaydi. Bundan shu kelib chiqadiki, o‘quvchilarda bilimlar tizimligini shakllantirish muammolari shundagina yechilishi mumkinki, qachonki ular tomonidan fan material va faoliyat amallari bir vaqtning o‘zida va ma’lum bir tizimda o‘zlashtirilsa.

Buning uchun o‘qitishda amallarni turli sinflarga ajratish taklif qilinadi, masalan:

- amalning umumiylik darajasi bo‘yicha (umumiy, alohida);
- maqsadning umumiylik darajasi bo‘yicha, yoki yechimni qidirishning boshqa amallari va maqsad to‘g‘risida ko‘rsatmaga ega bo‘lgan amallar;
- amal tarkibining berilganligi darajasi bo‘yicha (to‘liq tugallanmagan va to‘liq bo‘lmagan);
- amal tarkibining shakli bo‘yicha (elementar, murakkab);
- maqsadga erishish imkoniyati bo‘yicha (maqsadga erishish kafolati bo‘lmaganda – evristik; yarim evristik – amal tarkibidagi biror alohida harakatni bajarganda maqsadga erishish kafolati paydo bo‘lganda; algoritmik – maqsadga erishish kafolati anchagina yuqori bo‘lganda).

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, masala yechimini qidirishga o‘qitishda qiyinroq bo‘lgan nostandart masalalarga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Bundan tashqari, ularning o‘qitishda qo‘llanilishi o‘quvchilarda mantiqiy va matematik fikrlashning rivojlanishiga yordam beradi.

Matematikaga o‘qitish amaliyoti ko‘rsatadi-ki, masalalar yechimini qidirish, asosan tahliliy-sinteziy uslub yordamida amalga oshiriladi. Uning mazmuni quyidagicha. Masalani tahlil qilish shundan iboratki, u yechib bo‘linganday faraz qilinadi va sub’ekt kelib chiqishi mumkin bo‘lgan turli oqibatlarni aniqlaydi, keyin esa, shulardan kelib chiqib, boshlang‘ich masalaning yechish yo‘lini topishga

harakat qiladi. Bu yerda tahliliy-sintezli fikrlashning uchta bosqichi ajratib ko'rsatilgan: a) faraz qiladiki, masala yechilgan; b) bu farazdan u yoki bu xulosa chiqariladi; v) olingan xulosalar solishtirib ko'riladi (sintez) va masalani yechishning u yoki bu usulini qidirish bajariladi.

Masala yechimini qidirishga o'qitish jarayonining psixologik-fiziologik tomoni. Matematik masala yechimini qidirishga o'qitish jarayoni muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin emas, agar unda sub'ektning psixologik-fiziologik hususiyatlari inobatga olinmagan bo'lsa. Ob'ektiv sabablarga ko'ra bu izlanishda uning barcha yoshga doir hususiyatlarini (xarakteri, temperamentining tipi va b.) o'rganishga hojat yo'qligi hammaga ayon. Faqatgina masala yechimini qidirishga o'qitish jarayoniga bevosita aloqador bo'lgan tamoninigina ko'rib chiqamiz.

P.Ya. Galperin va uning hamkasblari tomonidan aniqlangan edi-ki, qobiliyat va ko'nikmalarning Yuqori darajada shakllanishiga aqliy harakatlarni shakllantirish jarayonini tashkil etishning oltita asosiy talablari bajarilgan taqdirdagina erishish mumkin [23, 392 b.]. Ko'rsatilgan talablar quyidagicha:

1. Aqliy harakatlarning taxminiy asosining to'liqligi.
2. Harakatning boshlang'ich ko'rsatilishidagi va o'zlashtirilishidagi yoyiqligi. Bu yerda barcha amallar va muolajalarning batafsil bajarilishi nazarda tutiladi.
3. Murakkab harakatning elementlari bo'yicha o'zlashtirilishi.
4. Ko'nikma va qobiliyatlarning tushunilganligi va to'laqonligi. Bu talab o'quvchi doimo nima uchun harakatni shunday, boshqacha emas bajarganini tushuntira olishi lozimligini bildiradi.
5. Aqliy harakatlar shakllanishi jarayoni amalga oshiriladigan vaqt oralig'i zarur darajada uzoq bo'lishi lozim.

Olimlar tomonidan ishonchli tarzda tasdiqlangan-ki, mustahkam qobiliyat yoki ko'nikmani shakllantirish ko'proq foydali bo'ladi, agar u uzoq davom etgan vaqt oralig'ida bajarilgan bo'lsa, ammo, uning qisqa oralig'ida emas, hatto ko'p marta va tez-tez takrorlashlarni qo'llaganilganda ham.

6. Qobiliyat yoki ko'nikmani bosqichma-bosqich egallash.

Quyidagi bosqichlar ajratiladi:

- a) harakatning taxminiy asosli chizmasini tuzish bosqichi;
- b) harakatni moddiy (yoki moddiylashtirilgan) ko‘rinishda shakllantirish bosqichi;
- v) harakatni tashqi nutqiy shakllantirish bosqichi;
- g) harakatni tashqi nutqda “ovoz chiqarmasdan” shakllantirish bosqichi;
- d) harakatni ichki nutqda shakllantirish bosqichi.

Keltirilgan faktlar masalalar tuzayotib uning asosiy didaktik vazifasiga asosiy e‘tiborni qaratish lozimligini ko‘rsatadi. Agar masala qandaydir yangi aqliy harakatni shakllantirish uchun tuzilgan bo‘lsa, bunday vaziyatda barcha oltita talabni inobatga olish katta ahamiyatga ega. Agar, gap tanish harakat to‘g‘risida ketayotgan bo‘lsa, unda birinchi, to‘rtinchi va beshinchi talablar ko‘proq ahamiyat kasb etishi ko‘rinib turibdi.

Inson xotirasi va fikrlashining qonuniyatlari o‘rganilgan R.Atkinsonning ishlarida ham to‘xtalib o‘tamiz [28]. Ilgari aytib o‘tilganidek, sub‘ekt ega bo‘lgan asosiy ma‘lumot xotiraning “uzoq muddatli” saqlanadi. Undan zarur ma‘lumotni olish uchun uni qidirish jarayonida uning qidirilayotgan izi aniqlangan bo‘lishi zarur [28, 98 b.], ya‘ni, uzoq vaqtli xotirada saqlanayotgan ma‘lumotning o‘ziga xos kodi aniqlanishi lozim. Agar kod topilsa tegishli ma‘lumot sub‘ektning qisqa muddatli xotirasiga ko‘tariladi va undan bevosita foydalanish mumkin. Bunday izning mustahkamligi asosan ma‘lumotning tezkor xotirada qancha uzoq vaqt davomida kodlanganligiga bog‘liq. bu o‘z navbatida, asosan, sub‘ekt tomonidan bajarilgan takrorlanishlarga bog‘liq. Demak, o‘quvchilar u yoki bu g‘oyani, uslubni, amalni va boshqalarni yaxshi eslab qolishlari uchun ularni o‘qitishda yodlanishi lozim bo‘lgan ma‘lumotni tez-tez va ko‘p martalab takrorlashlariga e‘tiborni qaratish lozim. Ishning mazmuniga ko‘ra, bu fanlararo aloqalar matematik masalalar yechimini qidirishga o‘qitish yetarli darajada samarali resursining psixologik asosi bo‘ladi.

Inobatga olish lozim bo‘lgan yana bir holat shuki, o‘quvchilarda abstrakt-mantiqiy fikrlash va isbotlash qobiliyati 13-14 yoshlarda shakllanadi [37]. Bu zamonaviy o‘rta maktabning 7-8 sinflariga to‘g‘ri keladi.. tushunarliki, matematik

masalalar yechimini qidirishga o‘qitish o‘quvchilarda abstrakt-mantiqiy fikrlash rivojlanib boshlanganda yoki bir qator shakllanganda mumkin bo‘ladi.

Mashhur psixologi A. M. Matyushkin “masala” va “muammoli vaziyat” tushunchalarining o‘zaro munosabatiga boshqacha nazar bilan qaraydi. “Fikrlash va o‘qitishda muammoli vaziyatlar” ishida bu muammoning ko‘rinishi quyidagicha bayon qilingan. Psixologik-pedagogik izlanishlar (D.N.Bogoyavlenskiy, N.A. Menchinskaya, G.S. Kostyuk, V.V. Davidov, G.V. Kudryavseva boshqalarning) tahlili asosida, A.M. Matyushkin o‘zining asosiy qonuniyatlari bo‘yicha yangi bilimlarni o‘zlashtirish – bu yangi masalalarni yechish jarayoni ekanligini ko‘rsatib berdi. A.M. Matyushkin “masala” tushunchasi va “muammoli vaziyat” tushunchasi tamoyilan turli, bir-biridan farq qiluvchi xaqiqatni bildiradi, degan fikr tarafdori [36]. U “masala” tushunchasiga harakatdagi shaxs - sub’ektni kiritmaydi. “Sub’ekt masala tushunchasini aniqlash uchun kerak emas, chunki masala o‘zining tarmog‘i bo‘yicha ob’ektiv berilgan va so‘z yoki belgi shaklida taqdim qilingan ma’lum kabi xarakterlanuvchi aniq shartlar va “izlanayotgan” kabi xarakterlanuvchi topish talab qilingan o‘rtasidagi munosabatdan iborat. Muammoli vaziyatni A.M. Matyushkin sub’ektning ob’ekt bilan hayoliy hamkorligining sub’ekt vazifani bajarayotganda paydo bo‘ladigan uning ruhiy holati kabi xarakterlanadigan, ilgari noma’lum bo‘lgan yangi bilim va harakat usulini topishni talab qiladigan alohida ko‘rinishi, deb qaraydi. Masala, birinchi navbatda unda izlanayotgan uning markaziy elementi bo‘ladigan murakkablik darajasi bilan, muammoli vaziyat esa – noma’lumning o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan qiyinchilik darajasi bilan xarakterlanadi. Muammoli vaziyat qiyinligining asosiy ko‘rsatkichlari – bu yangilik darajasi va noma’lumning umumlashganligi, o‘quvchining aqliy imkoniyatlari [36, 196 b.].

Shunday qilib, fikrlash psixologiyasida ikkita nuqtai nazar mavjud. Ulardan biricha masala va muammoli vaziyat bir-biriga zid qo‘yilmaydi, ikkinchisi bo‘yicha esa – ular bir-biridan tamoyilan farq qiladi.

Bizning izlanishlarimiz maktab matematik masalalar yechimini qidirishga o‘qitish muammolariga bag‘ishlangan. Aniq-ki, uni yechish uchun masalalarning

o‘zini ham, masala yechimini qidirish jarayonini ham o‘rganish zarur. Shu bilan bog‘liq holda savol tug‘iladi, qaysi psixologik yondashuv bazasida ushbu ishning asosiy qoidalarini ishlab chiqish lozim.

Yaxshi holatda masalani yechishning mantiqiy va psixologik yurishi bir-biriga mos tushadi. Biroq, matematik masalalar yechimini qidirish jarayonida uning mantiqiy tarkibi ko‘proq ahamiyatli, shuning uchun ham bu izlanishni bajarayotib, masalalarning o‘zlaridan kelib chiqish zarur, ya’ni ularning tarkibiy qismlarining ob’ektiv mantiqini aniqlash zarur va shu asosida ishlab chiqilayotgan yondashuvning asosiy qoidalarini ochish zarur.

Masalani yechishning psixologik va mantiqiy qidiruvi.

Masala yechimining psixologik va mantiqiy qidirish nima va ularning sub’ekt tomonidan masala yechimini qidirishni amalga oshirishdagi roli qanday, - degan savollarga javob berishdan oldin, oldimizga u masalani yechish jarayonida sinab ko‘radigan qiyinchiliklarning ma’nosi nimada ekanini aniqlashni maqsad qilib qo‘yamiz.

Agar sub’ekt masalani “qabul qildi”, uni yechishga rozi bo‘ldi, unda muvaffaqiyatga erishish uchun unga, eng kamida, nima qilishni va o‘ylaganni qanday amalga oshirishni bilishi zarur. Boshqacha qilib aytganda unga maqsad va harakat usuli ma’lum bo‘lishi zarur. Agar ular unga ma’lum bo‘lsa, yechish muvaffaqiyati to‘liq holda sub’ektning xarakatni bajarayotgan paytdagi holatiga bog‘liq, ya’ni, harakatni bajarish shartlariga, chunki, harakatning o‘zi psixologik tuzilishi bo‘yicha uchta asosiy tashkilish qismdan iborat: maqsad, harakatni bajarish usuli va sharti [36, 188 b.]. Ifodalangan vaziyat shuni bildiradiki, sub’ekt masaladagi shart va izlanayotganlar o‘rtasida aloqa va munosabatlarni o‘rnata olgan, ya’ni uni tushungan, bundan tashqari, unga yechish usuli ma’lum. Bu holda masala faqat shunda yechilishi mumkinki, qachon yechuvchi iroda, qat’iylik, chidamlilik, mehnatsevarlik va boshqalarni namoyon etsa va oddiy qilib yechimni bayon qiladi. Shunday qilib, bu vaziyatda yechimni qidirishning qiyinligi amalda to‘liq tarzda insonning hissiyot-irodaviy sohasi bilan bog‘liq. U masalaning

shakllanishini tushunib, o'zini u unga ma'lum bo'lgan usul bilan yechishini va yechimini amalga oshirishini aniqlashga "majbur qilish" kerak.

Masalani yechayotgan sub'ektda qiyinchiliklarning paydo bo'lish sabablaridan biri uning o'zi uchun yangi bo'lgan sharoitga tushib qolganida, ya'ni qiyinchiliklarning asosiy manbasi – masaladagi qandaydir yangilik, ekanligi yuqorida aytilgan edi. Masaladagi yangilikka bog'liq bo'lgan psixologik va mantiqiy qiyinchiliklar mazmuni nimadan iborat ekanligini aniqlaymiz.

Faraz qilamiz, sub'ekt ichida o'zi uchun yangi vaziyatni uchratgan masalani yechdi. Bu uning sub'ektiv darajada qandaydir "yangilik ochganidan" darak beradi. Bu fakt, o'z navbatida, yechuvchi masala yechimining nazariy va amaliy bazasining bir qismi bo'lgan alohida nazariy fakt va amaliy qobiliyatlarni mantiqan birlashtirish usulini topganini ko'rsatadi. Agar unga masalani yechishda foydalanilishi mumkin bo'lgan nazariy qoidalar va amaliy qobiliyatlar ro'yxati ma'lum bo'lgan bo'lsa u taqdirda, sub'ektga faqat shu ro'yxatdan bir nechta qoida va qobiliyatlarni tanlash va ularni mantiqiy aloqasini topish lozim edi, ya'ni, qanday qilib bir qoidadan boshqasi kelib chiqishini yoki qanday qilib ularning barchasi birgalikda qandaydir bir faktni shartli qilib qo'yishlarini aniqlash lozim edi. Agar masala bazasi yechuvchiga noma'lum bo'lsa, u holda unga uni va uning tarkibiy qismlarining mantiqiy aloqasini aniqlashga to'g'ri keladi. Amaliyotda bu ish ko'pincha bir vaqtning o'zida bajariladi.

Masala yechimini psixologik qidirish haqiqiy sub'ekt tomonidan masaladagi sub'ektiv ma'lumot asosida bajariladi. Ta'kidlaymizki, uning tarkibiga ob'ektiv ma'lumotning ham bir qismi kiradi. Bu yechuvchi ajrata olgan qismi (agar, yechuvchi ob'ektiv ma'lumotning hech bo'lmasa bir qismini ajrata olmasa, u masalani yecha olmaydi). Bundan tashqari, sub'ektiv ma'lumot sub'ekt uchun masaladagi xar bir harakatning natijasi o'rganuvchan ma'lumotning o'zi, bunda bu "salbiy" natija bo'lishi ham mumkin (ya'ni, yechishning berilgan bosqichida sub'ekt bu strategiya bo'yicha qidiruvni davom qildirish imkoni yo'qligini tushundi). Bu, mantiqiy qidiruv - masala yechimini psixologik qidiruvning ajralmas qismi, - ekanligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari, psixologik qidiruv

yechishda tartibsiz harakatlarni, oldindan sezishga tayanishni, tushunib yetishni, tasodifiy fikrlashlarni o'z ichiga oladi. Haqiqiy sub'ekt uchun bularning barchasi qat'iy mantiqiy fikrlashlar bilan tez-tez o'rin almashib turadi. Shuningdek, psixologik qidiruv o'z ichiga hissiy-irodaviy sohani ham oladi, shuning bilan birga, agar haqiqiy sub'ektning aqliy yoki irodaviy imkoniyatlari masalani yechish uchun yetarli bo'lmasa u tomonidan bajarilayotgan masala yechimini psixologik qidiruv muvaffaqiyatsiz tugashi mumkin.

Masala o'zida ob'ektiv va sub'ektiv ma'lumotni saqlashi psixologlar tomonidan aniqlangan. Oldingi ikki xat boshini tahlil qilib, masalaning yechimi ham ma'lumotning manashu ikki turiga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqaramiz.

Masala yechimini qidirishda ob'ektiv ma'lumot – bu, birinchidan, uning shakllanishida ob'ektiv ma'lumot, ikkinchidan – bu yechishning har bir bosqichida aniqlanadigan faktlarning jamlanmasi va ulardan kelib chiqadigan mantiqiy hulosalar, ular asosida esa masalani yechishning keyingi bosqichi aniqlanadi. Masala yechimining barcha variantlarini topib, undagi ob'ektiv ma'lumotning barchasi topiladi. Aniqki, masala yechimini qidirishning ob'ektiv ma'lumoti – bu masala o'zining ob'ektiv ma'lumotining bir qismi, negaki, yechimni qidirishning ob'ektiv ma'lumoti uni yechishning faqat manashu usuliga teng. Bundan kelib chiqadiki, bo'lak butun bilan mos kelishi mumkin, qachonki masala faqat bitta yechim variantiga ega bo'lsa. Masalada ob'ektiv ma'lumotni aniqlash vositasi bo'lgan mantiqni masala yechimini qidirishning ob'ektiv mantiqi,-deb ataymiz.

Masala yechimini qidirishni bajarishning qandaydir psixologik-mantiqiy mexanizmini ajratib ko'rsatish qiyin. Sub'ekt masala yechimini qidirishni ob'ektiv mantiq bilan boshlashi mumkin, his-tuyg'u darajasida esa davom qildirishi mumkin . Amaliyot ko'rsatganidek, masalalarni yechishning katta tajribasiga ega bo'lgan kishi masala yechimini qidirishning ob'ektiv mantiqini qo'llaydi, biroq u ham tasodifiy va betartib harakatlardan kafolatlangan emas, ayniqsa, uning uchun ancha qiyin bo'lgan masalani yechish davomida.

Olimlar masalani yechish jarayonini o'rganayotib ko'pincha uni yechishning g'oyaviy va "texnik" (g'oyalarni amalga oshirish) tarkibiy qismlarini ajratadilar.

Yechimni qidirish – bu, ko‘pgina hollarda, masalani yechishning har bir bosiqichida g‘oyalarni ilgari surish va ularni amalga oshirish. Masala yechimini sub’ektiv va ob’ektiv qidirishning mazmunini tahlil qilib, hulosa qilamiz-ki, g‘oyalar (xuddi shuningdek, gipotezalar) yoki to‘satdan, yoki masala yechimini qidirishning ob’ektiv mantiqining u yoki bu faktlarini tushunib etish asosida paydo bo‘ladilar. Birinchi variant – bu psixologik fenomen (aql bovar qilmaydigan hodisa), uni o‘rganish bajarilayotgan izlanish doirasidan tashqariga chiqib ketadi. Ikkinchi variant g‘oya (yoki gipoteza) masaladagi ob’ektiv ma’lumot tarkibiga kiruvchi qandaydir bir ob’ektiv asosga ega bo‘lishi lozimligi haqida guvohlik beradi.

Yu.M. Kolyagin va V.I. Krupichlar maktab matematika masalalarining tashqi va ichki tarmoqlari to‘g‘risida ilm yaratdilar [27, 110 b.]. Tashqi (axborotli) tarmoq o‘z ichiga masala to‘g‘risidagi sub’ektiv ma’lumotni oladi, ichki tarmoq esa – ob’ektivni. Tashqi tarmoq o‘z ichiga qidiruv jarayonining sub’ektiv ma’lumotini, ichki tarmoq esa – ob’ektiv ma’lumotini oladi.

Masala yechimini qidirish 2 ga bo‘linadi. Bular tashqi va ichki tarmog‘i hisoblanadi.

Masala yechimini qidirish jarayonining tashqi va ichki tarmog‘ining mazmunini ko‘rib chiqamiz. Masala yechimini qidirish jarayonining faktik tashqi tarmog‘i – bu haqiqiy sub’ekt tomonidan amalga oshirilayotgan uning yechimini psixologik qidiruvining sharhi. Masala yechimini psixologik qidirish mantiqiy qidiruvni o‘zining bir qismi kabi o‘z ichiga qamrab oladi, chunki busiz hech qanday sub’ekt hech qachon bitta ham masalani yecha olmas edi, shu sababli ham qidiruvning tashqi tarmog‘i ikkita katta tarkibiy qismdan iborat – psixologik va aqliy.

Masaladagi sub’ektiv ma’lumot – bu uni yechishdagi har bir harakatning o‘rganuvchi natijasi. Abstrakt sub’ekt, bu erda qabul qilingan uni tushunishga mos ravishda masalani yechish uchun zarur bo‘lgan barcha bilimlarga ega bo‘lgan ichki tarmoqni ob’ektiv mantiq vositasida aniqlaydi, Shu sababli ham uning uchun masalani yechish imkonini beradigan harakatlarning ketma-ketligini qidirib topishning o‘zigina muhim. Natijada, qidiruvning ichki tarmog‘i – bu abstrakt

sub'ekt tomonidan masala yechimini tashkil qiluvchi har bir harakatning ko'rsatilgan ketma-ketlikda bajarilishini mantiqan asoslab berish. Sabab deganda bu erda harakatni bajarish sharti va uni bajarish maqsadi ularning harakatdagi birligi tushuniladi. Ya'ni, masala yechimini qidirish jarayonining ichki tarmog'ining mazmuni masaladagi, masala yechimini topishga imkon beradigan, turli ma'lumotlar orasidagi ob'ektiv mantiqiy aloqalarining aniqlanishida.

